

AYOLLARNING OILADAGI HUQUQLARINING FIQHIY ASOSLARI

Abdulfaizova Durdona

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

Muqaddas dinimiz Islomda barchaga birdek xitob qilinib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Haq-huquqlarda birini boshqasidan ustun qo'yilmagan. Shuningek, islom shariati umumiy shaklda aniq maqsadga erishishni ko'zlagan bo'lib, u "himoya" deb ataladi. Himoya esa turli jabhalarda, turli shakllarda namoyon bo'ladi. Xususan, ayollarning sha'ni, ularga taalluqli bo'lgan barcha narsa islom dini asosida himoya etiladi. Shu sababdan ham Qur'oni karim va sunnati nabaviyda ayollarga oid haq-huquqlar, nozik va daqiq ta'riflar alohida e'tibor bilan keltiriladi, adolat, latofat va mehr ila bayon qilinadi. Qur'oni Karimdagi uchinchi eng katta sura "Niso" ya'ni "Ayollar" deb nomlanadi. Mazkur surada ayollarning barcha huquqlari Alloh tamonidan belgilanib qo'yilgan. Islom dini ayollarning sha'nini ko'tarib, ularning turmush tarzini go'zallashtirgan. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ayollarga o'z erlariga itoat qilishni, erkaklarga esa jufti halollariga mehribonlik qilishni buyurganlar. Qizlarni majburlab erga berish, ularning mollarni yeyishni man qilganlar. Chunki johiliyat davrida ayollar meros ololmas, agar biror kishiga qiz farzand ko'rganining xabari berilsa, g'azablanganidan yuzlari qorayib, bo'zarib ketar edi.

Muqaddas islom dini ta'limotida oilaviy hayot muqaddas hisoblanadi. Chunki, oila jamiyat binosining asosi, bir bo'lagidir. Agar binoning asosi sog'lom bo'lsa, bino ham mustahkam bo'ladi, aks holda bunday bino yemirilish va qulash xavfi ostida qoladi. Aynan shuning uchun dinimizda oila masalasiga benihoya jiddiy e'tibor qaratiladi, uning mustahkamligi, er-xotin o'rtasidagi mehr-muhabbat davomiyligini ta'minlash uchun o'ziga xos qonun-qoidalar mavjud. Bugun butun dunyo oila instituti inqiroziga, xususan, nikohlar beqarorligi, ajrashishlar soni ortishi, nikohsiz tug'ilishlar ko'payishi, oilaviy hayot va farzand tarbiyasiga toqatsizlik kabi muammolarga to'qnash kelyapti. Olimlar bunday muammolar millatning ma'naviy tanazzuliga sabab bo'lishi mumkinligini ilmiy jihatdan asosladi. Bu borada Abdurauf Fitrat: "Har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi



axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”¹, deb ta’kidlagan.

Oilada er va xotinga o‘ziga xos burch va vazifalar yuklangan, bir-biriga nisbatan haq va huquqlari belgilab berilgan. Agar er va xotin mazkur qoidalarga amal qilsa, bir-biriga nisbatan zimmalaridagi burch va mas’uliyatini his qilib, sitqidildan ado etsa, bunday oila baxt va saodat qasriga aylanadi. Bunday namunaviy oilada tug‘ilgan farzandlar ham go‘zal tarbiya topadi va kelajakda ulardan jamiyatga foydasi tegadigan buyuk insonlar yetishib chiqadi.

Oila borasidagi diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlarni kuzatsak, oila barqarorligida er-xotin munosabatlari asosiy o‘rin tutishini ko‘ramiz. Masalan, islomda nikoh orqali inson va oilani ulug‘lashga, erkak va ayolning huquqlariga, ularning sha’niga va oilada tinchlikni saqlashga katta e’tibor qaratilgan: “Ayollar (uchun belgilangan huquqlar) o‘z me’yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir” [2:36]. Islomda er va xotinlik aloqalari eng muqaddas insoniy aloqa ekan, mazkur aloqalar qay tarzda yo‘lga qo‘yilishi kerakligini ham bilishimiz va mazkur bilimga amal qilishimiz lozim. Shariatimizda shunga o‘xshash savollarning barchasiga javob berilgan. Qur’oni karim oyatlari va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislarida bu masala atroflicha yoritilgan. Muftahid ulamolarimiz mazkur oyat va hadislardan ko‘plab hukmlarni chiqargan. Bularning eng asosiy lari erkaklar oila ko‘rki bo‘lgan ayollarimizga chiroyli muomala ko‘rsatishi, shirinso‘z bo‘lishi va har tomonlama yaxshilik qilishi lozim. Ularning fe‘l-atvoridagi biror harakat yoqmagan taqdirda ham qo‘pollik qilmasdan, shirinso‘zlik bilan kamchiliklarini aytish, ularni tuzatishga ko‘maklashi kerak bo‘ladi. Ayollarning hulqlarida bir emas, bir necha yaxshilik borligi ma’lum. Oila saranjom-sarishtaligi, kiyim-kechak va uylarning pok va ozodaligi, taom tayyorlash borasidagi minnatsiz xizmatlari va eng muhimi, to‘g‘ri tarbiya berilgan, ko‘zlar quvonchi bo‘lmish solih farzandlarni voyaga yetkazishlari shunday yaxshiliklar sirasiga kiradi. Bu haqda hazrat Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday deganlar: “Mo‘min erkak mo‘mina xotiniga g‘azab qilmasin. Agar uning xulqidan, biri yoqmasa, ikkinchisi xursand qiladi”(Imom Buxoriy rivoyati). Bu haqda Alloh taolo: “Ayollar ila yaxshi muomalada bo‘lib hayot kechiringlar”, deb marhamat qilgan (Niso, 19). Shundan kelib chiqib komillikka intilgan har bir erkak oilada o‘ziga

¹Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari.-T.: Ma’naviyat, 2000



hayotiy hamroh bo'layotgan ayolning barcha axloq va xilqatini to'la tushunib, unga yaxshi muomalada bo'lishi lozim.

Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida yozilishicha, oila va nikoh masalasida ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega hukmlardan biri ayolning nikohda qanday haq-huquqlari borligi haqidagi bilimga ega bo'lishidir: "Nikohning asl mohiyati haqida ilm bo'lishi shart. Chunki, qiz bola faqat ilm bo'lgandagina tasarruf eta oladi. Bu dunyo ilm olish dunyosi, bunda johillik uzr bo'lolmaydi". "Hidoya"da oila va nikohga oid hukmlarning ijtimoiy ahamiyatga ega tomoni erkak va ayolning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va aqliy jihatdan bir-biriga teng bo'lishiga e'tibor qaratilganidir: Nikohda tenglik e'tiborga olinadi. Payg'ambarimiz (S.A.V.) aytganlarki: **"Ogoh bo'lingki, ayollarni faqat o'zlariga teng bo'lgan kishigagina bersinlar"**².

Xotinning er zimmasidagi haqqi erning o'ziga ham, moliga ham tegishlidir. Xotinning eri zimmasida mahr va nafaqa singari shaxsiy va moliyaviy haqlari bor. Ular quyidagilar:

1. Xotinning er zimmasidagi haqlaridan birinchisi er tomonidan unga yaxshi va adolatli muomala qilinishidir. Zero, Alloh taolo O'z Kitobida: **"Ayollar bilan yaxshilik ila turmush kechiring. Agar ularni yoqtirmasangiz, shoyadki, Alloh siz yoqtirmagan narsada ko'plab yaxshiliklarni paydo qilsa!"**, deya amr etgan (Niso surasi, 19-oyat) [3:402]. Bu amr erning xotinga yaxshi muomalada bo'lishini, tabiatidagi ayrim noqisliklarga sabr qilishini, ba'zi xatolariga ko'z yumishini taqozo etadi. Shuningdek, ayolni tarbiyalash va unga dunyoyu oxiratda foydasi tegadigan narsalarni o'rgatib, ta'lim berishni ham nazarda tutadi. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning bir hadislarida: **"Mo'min er mo'mina xotindan nafratlanmasin, agar uning bir xulqini yomon ko'rsa, boshqa xulqi tufayli undan rozi bo'lib ketaveradi"**, deyiladi (Imom Muslim rivoyati). Ya'ni, er xotinining ayrim fe'lidan g'azablansa, oilani buzib yuborishga shoshilmasligi, shu tufayli xotinini yomon ko'rib qolmasligi lozimligi, balki uning yaxshi odatlarini ham ko'z oldiga keltirib, shu bilan ko'nglini to'q qilib yurishi kerak. Shuningdek, er xotiniga xushfe'l bo'lishi, u bilan yaxshi muomala qilishi, birga farovon hayot kechirishi, ozor

² Burxonuddin Marg'inoniy. Hidoya, I-jild, Nikoh kitobi: –T.: Adolat, 2002.



yetkazmasligi kerak. Bu bilan er Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadislariga amal qilgan bo'ladi.

2. Ayolning eri zimmasidagi ikkinchi haqqi mahrdir. Bu – ayolni ikrom qilish, unga yaxshilik qilish bobidan. Alloh taolo Qur'oni karimda erlarni ayollarning bu haqqiga rioya qilishga chaqirib: "Xotinlarga mahrlarini mamnunlik bilan beringiz" (Niso surasi, 4-oyat), deb amr etgan.

3. Er xotinning ozorini ko'tarishi, u g'azablanganida va jahli chiqqanida muloyim bo'lishi, uning xatolarini kechirishi kerak. Bu Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sunnatlariga amal qilishdir. Imom Muslim Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qiladi: "Rasululloh (S.A.V.)dan boshqa oilasiga mehribonroq biror kishini ko'rmadim".

4. Erkak ayolining or-nomusini saqlashi kerak. Oqibati buzuk bo'ladigan har qanday holatga beparvo bo'lmaslik lozim. Ammo yomon o'y, o'ta talabchanlik va gumonda haddan oshish durust emas. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bundan qaytarganlar. Imom Muslim Jobir roziyallohu anhudan bunday rivoyat qiladi: "Rasululloh (S.A.V.) erni oilasini xiyonatda gumon qilib, uyga kechqurun kelishdan qaytarganlar".

5. Er xotinining oziq-ovqat va kiyim-bosh kabi ehtiyojlarini isrof etmay, yetarli ta'minlashi kerak. Er oilasiga sarflagan xarjlari uchun ajr va savobga erishadi. Imom Buxoriy va Muslimning "Sahih"larida bunday keltirilgan: "Sa'd ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhuning rivoyat qilishicha, Payg'ambarimiz (S.A.V.) dedilar: " **Alloh taolo roziligini istab qilgan har qanday xarjing uchun ajr olasan. Hatto xotining og'ziga solgan taoming uchun ham senga ajr bor**». Shuningdek, bu masalada, ya'ni nafaqa masalasida er o'zining iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib ish ko'radi. Alloh taolo Qur'oni karimda bunday marhamat qiladi: "**Boy-badavlat kishi o'z boyligidan** (ya'ni, o'z boyligiga yarashadigan tarzda) **nafaqa bersin. Kimning rizqi tang qilingan** (kambag'al) **bo'lsa, u holda Alloh o'ziga ato etgan narsadan** (o'z holiga yarasha) **nafaqa bersin. Alloh hech bir jonga O'zi unga ato etgan narsadan boshqa narsani yuklamas. Alloh tanglik – kambag'allikdan so'ng yengillik – boyligni ham paydo qilur**" (Taloq surasi: 7-oyat) [2:559].

6. Er xotinining iffatini saqlashi lozim. Xotinini haromdan himoya qilish erga vojibdir.



7. Er xotinini yaxshi ko'rsa, juda hurmatlashi lozim, yomon ko'rsa, zulm qilmasligi kerak. Istasa, chidab yashasin yo yaxshilikcha ajrashsin. Ayolni faqat mardlar qadrlaydi, pastlar xo'rlaydi.

Xulosa sifatida ayitishimiz mumkinki, Islomda er-xotin o'rtasidagi munosabatning davomiyligini ta'minlash uchun o'ziga xos qonun-qoidalar joriy qilingan. Bunda oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari va a'zolari bo'lmish er va xotinning har biriga o'ziga xos burch va vazifalar yuklangan, bir-biriga nisbatan haq-huquqlari ham belgilab berilgan. Rasululloh alayhissalom boshqa bir hadisda: "Albatta, ayollar erkaklarning yarmi (sherigi, tug'ishganlari)dir", – deganlar (Imom Abu Dovud rivoyati). Ushbu hadisi sharifga binoan, Islom shariati ayollarni har qanday holat va ishlarda erkaklarga sherik qilgan desak, to'g'ri bo'ladi. Zero, ayol farzandlarni tarbiyalash, borasidagi xizmati oilani mustahkamlash yo'lida ham erkaklarga hamroh ekanidan dalolatdir. Er-xotin o'zaro inoq bo'lgan oiladan sunnati nabaviy ko'rsatib bergan yo'lga muvofiq go'zal xonadon paydo bo'ladi. Bunday xonadonlar esa jamiyat binosini barpo qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham ayol jamiyatning yarmi deyiladi. Balki, ayol yarmidan ham ko'proq ulushga ega. Zero, ayol bu – ona, rafiqa, qiz va opa-singildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. –T.: Toshkent islom universiteti, 2004.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –T.: Ma'naviyat, 2000.
3. Burxonuddin Marg'inoniy. Hidoya, I-jild, Nikoh kitobi: –T.: Adolat, 2002.
4. <https://www.bukhari.uz>.
5. <https://uza.uz>.